



Dilfuza BEGMATOVA,

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti
E-mail: d.begmatovafizic@gmail.com

Chirchiq dablat pedagogika universiteti professori, f.-m.f.d. I.Tursunov taqrizi asosida

МЕТОДЫ ОРГАНИЗАЦИИ ЛАБОРАТОРНЫХ ЗАНЯТИЙ ПО ФИЗИКЕ ПРИ ПОДГОТОВКЕ СПЕЦИАЛИСТОВ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

Известно, что участие студентов в физических практикумах является наиболее важной и эффективной частью учебного процесса по курсу физики. По этой причине правильная организация практической подготовки, разработка вопросов связанных с проблемами ее развития имеет большое значение в физическом образовании. В физическом образовании с точки зрения дидактических свойств большое значение имеют знания, полученные посредством лабораторных экспериментов. В статье раскрываются методические основы организации лабораторных занятий по физике при подготовке специалистов высшего образования.

Ключевые слова: лаборатория, эксперимент, физический практикум, педагогический программный инструмент, физическая величина, демонстрационный эксперимент

METHODS OF ORGANIZING LABORATORY CLASSES IN PHYSICS DURING TRAINING SPECIALISTS IN HIGHER EDUCATION

Annotation

It is known that student participation in physics workshops is the most important and effective part of the educational process in a physics course. For this reason, the correct organization of practical training and the development of issues related to the problems of its development are of great importance in physics education. In physics education, from the point of view of didactic properties, knowledge obtained through laboratory experiments is of great importance. The article reveals the methodological basis for organizing laboratory classes in physics in the training of higher education specialists

Keywords: laboratory, experiment, physics workshop, pedagogical software tool, physical quantity, demonstration experiment.

OLIY TA'LIMDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASHDA FIZIKADAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH USULLARI

Annotatsiya

Ma'lumki, talabalarning fizikadan praktikum mashg'ulotlarida shug'ullanishlari fizika kursini o'qitish jarayonining eng muhim va samarali qismini tashkil qildi. Shu sababli ham, praktikum mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil qilish, uni rivojlantirish muammolariga oid masalalarni ishlab chiqish fizika ta'limida juda katta ahamiyatga ega. Fizika ta'limida laboratoriya eksperimenti orqali olinadigan bilimlar o'zining didaktik xususiyatlari jihatidan katta salmoqqa egadirlar. Maqolada oly ta'limda mutaxassislar tayyorlashda fizikadan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishning metodik asoslari o'chib berilgan.

Kalit so'zlar: laboratoriya, eksperiment, fizika praktikumi, pedagogik dasturiy vosita, fizikaviy kattalik, namoyish eksperimenti.

Kirish. Oly ta'limda mutaxassislar tayyorlashda fizikadan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish o'quv jarayonini yanada samarali va interaktiv qilish imkonini beradi. Fizika praktikum mashg'ulotlari oly ta'lim muassasalarida ilmiy laboratoriya eksperimentlari asosida bajariladi, olingen natija va xulosalar nazariy olingen qiymatlar asosida tekshirib boriladi. Umumiy fizikaga oid laboratoriya eksperimenti texnikasi va metodikasi sohasidagi izlanishlar fizika o'qitish metodi muammolarining dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Zamonaviy texnologiyalar jamiyatning barcha bo'g'inalarini qamrab olgan asrda pedagog texnik vositalarsiz umumiy fizika bo'limlari mavzularini qanchalik mohirona bayon etmasin, baribir talaba bu bo'lim mavzulari, qonunlari, unda yuz beradigan hodisa va jarayonlarni darxol anglab olishi qiyin. Shu sababli laboratoriya mashg'ulotlari talabalarga nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash, eksperimentlar o'tkazish va ilmiy izlanishlar olib borish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Har bir laboratoriya mashg'uloti o'quv jarayonining muayyan maqsadlariga xizmat qilishi kerak. Bu maqsadlar talabalarni fizikaviy jarayonlarni tushunishiga, formulalarni amalda qo'llashga, tajriba o'tkazish va natijalarni tahlil qilishga yo'naltiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Fizika praktikumiga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadi, bu mavzuda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar asosan laboratoriya ishlarining tavsifi (nazariy qism, eksperimental qurilma xususiyati, ishning maqsadi, asbob va materiallar, ishni bajarish tartibi, savol va topshirilqlar, adabiyotlar) bilan cheklanib qoladi. Fizika sohasi fanning nazariy asoslari, talabalarga ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning o'ziga xos metodik xususiyatlarini ishlab chiqish respublikamiz olimlari B.M.Mirzahmedov, A.Baydedayev, M.Jorayev, N.B.G'ofurov, N.H.Avliyoqulov, P.Xabibullayev, O.N.Ahmadjanov,

Y.G'.Mahmudov, Y.Pulatov, M.Qurbanov, K.Nasiddinov, K.Tursunmetov, O.Q.Quvondiqov, A.M.Xudayberganov, S.Qahhorov boshqalar tomonidan o'r ganilgan, bo'lajak pedagog kadrlarni tayyorlashda axborot texnologiyalarining o'mni, ta'lim sifatini oshirishni dasturiy vositalar asosida takomillashtirish U.SH.Begimqulov, D.Yunusova, Q.P.Abdurahmonov, B.Abdullayeva, N.Taylaqov, G.Umarova, P.Jalolova va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida o'z aksini topib, zamonaviy axborot texnologiyalarini vositasida ta'lim jarayonini tashkil etishning vosita va usullari, ta'lim sifatini oshirishda dasturiy vositalarning o'mni samarali yoritilgan. Xorijlik olmlar oly ta'lim tizimida fizikadan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish metodikasi bo'yicha: L.V.Tarasov, Novikov, V. D., Vasilenko, A. S., YE.YE.Kulakov, A.B.Kosolapova, L.S., Guzik, V. A., Shmidt, L. M., Yelagin, I. S. kabi olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan [1-7].

Tadqiqot metodologiyasi. Umumiy ilmiy-teknikaviy taraqqiyot, fizikada keyingi o' yilliklar davomida eksperimental vositalarning, ayniqsa, kompyuter texnologiyasining katta rivoji fizika eksperimentini yangi bosqichlarga ko'tardi. Fizika eksperimentlari a) faol eksperiment va b) passiv eksperiment tushunchalari vujudga keldi. Tadqiqotning faol usullari mantiqan tafakkurdagi faollik bilan bevosita bog'liqdir.

Tahlil va natijalar. Fizika praktikum mashg'ulotlarida pedagogik dasturiy vositalarni qo'llash mavzuni oson o'zlashtirish hamda eksperimentni o'tkazishni tezlashtirish imkonini beradi. Fizika tadqiqoti sohalarida bunday eksperimentlar endilikda odatiy hol bo'lib qolgan. Bunday usullarga zaruriyat quyidagi holatlar bilan belgilanadi:

1) Bir qator eksperimentlar g'oyat murakkabdir. Bular jumlasiga yadro fizikasidagi, kosmosdagi, mikroelektronikadagi, termoyadroviy reaksiyalarga oid eksperimentlar kiradi.

2) Ko'p sonli obyektlarni bir vaqtida tadqiq qilish lozim bo'ladi Bunday eksperimentlar turiga murakkab qurilmalarning ishonarliligini ta'minlash, eksperimental ma'lumotlarga ta'sir qiluvchi omillarning ko'pligi va b. hollar kiradi.

3) Yakkta o'lchashlar va yakka tadqiqtolar tufayli tadqiqtichalar sonining samarasiz o'sishidan (passiv konservativ eksperiment) jadal eksperimentlarga o'tish orqali tadqiqtolar samaradorligini oshirish zaruriyatni mavjuddir.

Keyingi yillarda ichida oliy mакtablar fizika praktikumi dasturlari tarkibida ham bunday faol xarakterli laboratoriya ishlari soni asta-sekin o'sa bordi. Bir qator yetakchi xorijiy o'quv dargohlarida bunday ishlar soni dastlabki (2-4) o'quv semestrlarida yoq, umumiy ishlar sonining 20-30 % ni tashkil qilmoqda. Fizika eksperimentida takomil metodlarning, faol hamda avtomatlashtirish texnologiyalarining katta sur'atlar bilan rivojlanib borayotganini, shuningdek, ushu texnologiya elementlarini ta'lim mazmungina ham joriy qilish zaruriyatini e'tiborga olib 2021 yil 19 martdagagi PQ-5032-son «Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqtorni rivojlantrish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlar xususiy, qator takliflar jumlasida praktikumga kompyuter texnologiyalarini keng joriy qilishni tavsiya qilgan edi.

Shundan keyin universitetlar fizika mutaxassisligi uchun fizika praktikumi yangi dasturida bajarish jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish lozim bo'lgan laboratoriya ishlari nomlari ko'rsatib berildi. O'tgan davr ichida oliy o'quv yurtlarda bu borada muayyan tajribalar yig'ildi. Bunda erishilgan eng muhim natijalar quyidagilardir:

- Talabalarning mustaqil faoliyatiga mo'ljallangan vaqt budgeti tejalishi mumkin. MDU, MEI, Lvov Davlat Universiteti, Odessa Politexnika Instituti, Kiyev Davlat Universiteti, O'zbekiston Milliy Universiteti tajribalariga ko'ra, har bir laboratoriya ishida talaba 2-3 soatgacha vaqtini tejaydi.

- Olingan eksperimental natijalarning hamda yakuniy natijalarning to'g'riligini qisqa muddatlarda tekshirib ko'rish imkoniyatiga paydo bo'ladi.

- Faollashtirish metodlari talabalarning fizika eksperimentiga qiziqishini orttiradi.
- Tejab qolning jismoniy va vaqtiy resurslar mashg'ulotlarning ijodiy jihatlarini kuchaytirishga imkon yaratadi.

Eng muhimmi, talabalar fizikadagi eksperimental tadqiqtorda rivojlanib borayotgan zamonaviy metodlar va ularning elementlari bilan tanisha boradilar.

Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarda o'quv eksperimentining ikkita muhim turi mustaqil o'ringa egadir. Ularning biri o'quv laboratoriya eksperimenti deb atalsa, ikkinchisi, o'quv namoyish eksperimenti deb yuritiladi. Ular bir-birlaridan amalgaga oshirishning tashkiliy-texnikaviy hamda ularga qo'yiladigan ilmiy-uslubiy, pedagogik-psixologik va bosqcha didaktik talablar jihatidan jiddiy farq qiladilar. Fizikadan namoyish eksperimenti o'zining xususiyatlari, ularga qo'yiladigan talablar jihatidan o'ziga xos juda boy mazmum ega bo'lub, ushu tadqiqtoda fizika eksperimentining bu turi ustida to'xtalmaymiz. Oliy mакtablarda fizik tadqiqtchi, fizik-pedagog va muxandis mutaxassislarni shakllantirishda fizika kursining va eksperimentining hal qiluvchi ahamiyatiga mos tarzda fizika laboratoriya eksperimentiga katta o'rinn beriladi.

O'quv jarayoni rejasida fizikadan laboratoriya mashg'ulotlariga ajratilgan soatlar tahlilidan quyidagilarni qayd etib o'tish lozimdir: 1) har bir mutaxassislik uchun fizika eksperimentiga ajratilgan o'quv soatları hajmi, avvalo, muayyan mutaxassisni shakllantirishda fizika bilmalaringin, xususan, fizika eksperimentining o'mini aniqlab beradi; 2) biroq, biz quyida ko'rsatganimizdek, bu bilimlar, albatta faqat miqdorangina farq qilmasdan tegishli praktikum o'quv dasturlari mutaxassislik xususiyatlarini hamda ta'limning muayyan bosqichida rivojlantrish lozim bo'lgan bilimlarni ham hisobga oлgan holda mazmuniy farqlarni belgilab beradilar. Bu yerda bir qator uslubiy va didaktik masalalar ko'zda tutildi:

- a) praktikum ishlari ro'yhatini tanlashda mutaxassisning kasbiy xususiyatlari hisobga olinadi;

- b) ushu mutaxassislik talabasi laboratoriya ishlari majmuasini bajarishi jarayonida egallashi lozim bo'lgan maksimal bilimlar kompleksi belgilab beriladi.

- v) ma'lumki, g'oyat sermazmun va serqirra fundamental fizika bilimi hayot sinovidan o'tgan bosqichli tadriji yusulda o'zlashtiriladi.

Ta'lim standartlarining o'quv laboratoriya eksperimenti oldiga qo'yadigan talabalariga ko'ra, umumiy fizika laboratoriya eksperimenti, umuman olganda, quyidagi uch variantda amalgaga oshirilishi mumkin:

1) fizikaviy kattalikni o'lchashning (qonunni tekshirishning, hodisani kuzatishning va x.) eng maqbul metodi va ishliladigan asboblar hamda materiallar majmuasi talabaga ko'rsatib beriladi;

2) qo'llaniladigan o'lchash metodi ko'rsatib beriladi, lekin o'lchash uchun kerakli asboblar majmuasini talabaning o'zi tanlaydi;

3) talabaga muayyan fizikaviy kattalikni ko'rsatilgan aniqlikda o'lchash topshiriladi, qo'yilgan masalani eng maqbul tarzda amalga oshirish imkonini beruvchi eksperimental metodni va o'lchash asboblari majmuasini talabaning o'zi tanlashi lozim.

Laboratoriya ishini amalga oshirishning birinchi varianti ijodiy tafakkurning boshlang'ich bosqichlariga: taklif qilingan eksperimental metod, asbob qurilmasi va o'lchash asboblari bilan tanishish hamda taklif qilingan tartibda ular bilan muomala qilish, o'lchash natijalarini ishlab chiqish, xatoliklarni tahlil qilish uquv va malakalarini hosil qilishga mos keladi.

Ikkinchi variant yuqorida erishiladigan intellektual bosqichni yanada yuqoriq ko'tarish imkonini beradi. Talaba endi tegishli iqtisodiy-texnikaviy, ergonomik, vaqtiy maqbullik hamda tadqiqt natijasiga qo'yiladigan aniqlik talablarini hisobga oлgan holda asbob va materiallarga buyurtmalar beradi. Ushbu variant tadqiqtchi-eksperimentator oldida yuzaga keladigan bir qator ijodiy elementlarni o'z ichiga oladi.

Eksperimentni amalga oshirishning uchinchi varianti tadqiqtchi eksperimentator oldiga qo'yiladigan eng yuqori darajadagi ijodiy tafakkur vazifasiga mos keladi. Bu holda tadqiqtchini cheklovchi omillar, bu faqat iqtisodiy-texnikaviy va reglamentninga bo'lishi mumkin, chunki real holatlarda tadqiqt, albatta, biror vaqt intervalida amalga oshirilganidagina ilmiy-amaliy qiymatga ega bo'lishi mumkin.

Laboratoriya ishlarini amalga oshirishning qaralagan variantlari universitetlarda fizik-tadqiqtchi va pedagoglar tayyorlash ta'lim standartlari ko'zda tutadigan maksimal rivojlantrish mezonlarini belgilab beradi.

Fizika umumiy praktikumi oliy mакtablarning fizika mutaxassisligi bakalavr o'quv rejalarida odatda dastlabki 1-5 o'quv semestrlariga (fizikaviy mechanika-1 semestr, molekulyar fizika-2 semestr, elektromagnetizm-3 semestr, optika-4 semestr hamda atom va yadro fizikasi-5 semestr) mo'ljallanadi. Bu davr ichida talabalarning fizika ma'ruza kursidan va matematika kurslaridan oladigan bilimlari, ularning o'rta maxsus ta'lim bosqichida egallagan amaliy malaka va uquvlar laboratoriya eksperimentini hali yuqori ijodiy saviyada amalga oshirish imkonini bermaydi. Shularni e'tiborga olib dastlabki paytlarda praktikumda faqat ayrim talabalarning iqtidori imkon bergandagi bunday ijodiy elementlari qismangina kiritilishi mumkin va ularning ko'lami semestrdan semestrga asta-sekin ortib borishi mumkin. Hozirda yaratilgan zamonaviy o'quv adabiyotlari aynan praktikumni birinchi variantda amalga oshirilishini ko'zda tutadilar. Biroq, laboratoriya ishlarini rejalashtirayotganda guruhdagi iqtidolri talabalar imkoniyatlaridan foydalanish, ularning ushu qobiliyatlarini rivojlantrishni ko'zda tutish lozimdir. Talabalar kursdan-kursga o'tganlari sari bunday imkoniyatlarga ega bo'lgan talabalar soni ortib borishi mumkin. Demak, bunday imkoniyatlardan maksimal foydalanish lozimdir.

Fizika praktikumi ishlarini va ularning mazmunini rejalashtirayotganda fizika mutaxassisligi bilan fizik bo'limgan tabiiy-texnika mutaxassisliklarini aniq farq qilish lozimdir. Fiziklar uchun mo'ljallangan praktikum fizikaning barcha bo'limgan iqtisodiy elementlari qismangina kiritilishi mumkin. Hozirda yaratilgan zamonaviy o'quv adabiyotlari aynan praktikumni birinchi variantda amalga oshirilishini ko'zda tutadilar. Biroq, laboratoriya ishlarini rejalashtirayotganda guruhdagi iqtidolri talabalar imkoniyatlaridan foydalanish, ularning ushu qibiliyatlarini rivojlantrishni ko'zda tutish lozimdir. Talabalar kursdan-kursga o'tganlari sari bunday imkoniyatlarga ega bo'lgan talabalar soni ortib borishi mumkin. Demak, bunday imkoniyatlardan maksimal foydalanish lozimdir.

Shuning bilan birga, o'z oldiga qo'yadigan maqsadlari jihatidan fizika mutaxassisligi talabasiga mo'ljallangan praktikum fizik bo'limgan mutaxassisliklar va muxandislari fizika praktikumidan prinsipial farq qiladi. Bo'lg'usi muxandis uchun ko'pincha eksperimentning oxirgi natijasi ahamiyatli bo'lsa, bo'lg'usi fizik tadqiqtchi va pedagog uchun eksperimentning maksimal ko'rgazmali bo'lishi, eksperiment metodologiyasini chuqr egallash hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Lekin shunga qaramay, ba'zi bir o'quv adabiyotlarda va o'quv yurtlarda fizika praktikumining ko'rgazmalilik tamoyilidan chetlashishlar kuzatiladi.

Xulosa va takliflar. Demak, laboratoriya praktikumi eksperimenti natijasining dalillanganligi ilmiy eksperimentini kabi bo'lishi shart emas. Buning bir sababi o'quv praktikumlarini presizion (yuqori aniqlikni ta'minlaydigan) asboblar bilan ta'minlash iqtisodiy murakkab masala bo'lsa, ikkinchi tomondan bunday katta aniqlikka

erishishga zaruriyat ham yo'qdir. Masalan, o'quv eksperimentida aniq isbotga erishish uchun ilmiy eksperimentda zarus bo'lganidek, o'lhashlar sonimi ko'paytirishga ham hojat yo'qdir. Agarda ilmiy eksperimentda aniq ma'lumotlar olish asosiy maqsad bo'lsa, o'quv eksperimentida eksperiment metodologiyasini egallash eksperimentda topilgan natijaning jadvallarda keltirilgan qiymatdan chetlashish sabablarini tahlil qilish ishning oxirgi natijasi aniqligiga nisbatan ko'proq ahamiyatga egadir.

Shunday bo'lishiga qaramay, oliy maktablarda laboratoriya mashg'ulotlari paytida ba'zi bir o'qituvchilar ko'pincha, talaba yodlab olgan nazariy bilimlarni tekshirish hamda topilgan kattalikni jadval ma'lumotlariga taqqoslash bilan cheklanib fizika praktikuming asosiy maqsadlaridan chetlashadilar. Vaholanki, talabaning eksperimental o'lhash uquvlarini egallashi, o'lhash natijalarini ishlay bilishlari va masalan, Plank doimiysi h uchun

topilgan qiymatning jadvaldagagi qiyatdan chetlashishiga olib kelgan xatoliklar manbalarini tahlil qila bilishi ko'p jihatdan muhimroqdir. Aftidan, o'qitish amaliyotida uchrab turadigan bunday kamchiliklar fizpraktikumga nazariy kursni mustahkamlaydigan yordamchi fan sifatida noto'g'ri yondoshishning oqibatidir.

Bir qator hollarda fizik bo'lмаган mutaxassislik talabalari uchun praktikum ishlarini rejalashtirayotganda shu mutaxassislik sohasida qo'llaniladigan fizik eksperimentlar bilan cheklanishga intilish kuzatiladi. Vaholanki, har qanday mutaxassislik talabasining fizikaning metodologik asoslarini ochib beruvchi fundamental eksperimentlar bilan tanishtirish ham muhimdir. Shu sababli ham har qanday mutaxassislik uchun fizika praktikumi tarkibiga ba'zi bir fundamental fizikaviy eksperimentlarni kiritish fizika fani metodologiyasi bilan tanishtirishda muhimdir, deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR

1. Fizika o'qitish metodikasi/ D.A.Begmatova, M.Qurbanov, Sh.Sodiqova, N.Q.Abdullayev, O.D.Suyunova/O'quv qo'llanma.-Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2023. 300 b
2. Бегматова Д.А. Физика практикумни ишларини миқдорий баҳолашнинг дидактик асослари. Автореферат. Т.: 2004.-25 б.
3. Жалолова П.М. Олий таълимда “атом физикаси”га оид лаборатория машгулотларини такомиллаштириш воситалари Автореферат. Т.: 2018.-25 б.
4. Novikov, V. D., Vasilenko, A. S. "Fizika laboratoriya ishlari va ularni o'tkazish metodikasi"-2016.-38 б.
5. Guzik, V. A. "Laboratoriya ishlari va amaliy mashg'ulotlar: tashkil etish va baholash metodikasi" -2014.-124 б
6. Shmidt, L. M., Yelagin, I. S. "Psykhologiya i pedagogika laboratornykh rabot". -2017.
7. Satterthwaite, F., McNally, B. "Improving Laboratory Instruction in Physics Education". -2019.